

This approach applies to non-technical subjects as well. When learning to paint, I made heavy use of video tutorials where I worked on the same painting as the instructor. I'd usually watch the video through once, then work alongside the instructor on a second pass.

Cognitive Load Theory provides a valuable framework for understanding how we learn and process new information. It highlights the limitations of working memory and explains why some subjects require extensive effort while others are acquired naturally. Effective learning strategies, such as using worked examples, goal-free problems, and self-explanation, can help manage cognitive load and improve retention. By applying these principles, educators and learners can create more efficient and accessible learning experiences.

References

- 1.Sweller, J. (1988). Cognitive Load During Problem Solving: Effects on Learning. *Cognitive Science*, 12(2), 257–285.
- 2.Sweller, J., Ayres, P., & Kalyuga, S. (2011). *Cognitive Load Theory*. Springer Science & Business Media.
- 3.Kirschner, P. A., Sweller, J., & Clark, R. E. (2006). Why Minimal Guidance During Instruction Does Not Work: An Analysis of the Failure of Constructivist, Discovery, Problem-Based, Experiential, and Inquiry-Based Teaching. *Educational Psychologist*, 41(2), 75-86.

METAFORALAR VA ULARNING BADIY MATNLARDAGI ROLI

*Ahatova Dilshoda,
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi*

Annotatsiya: *Metaforalar badiiy adabiyotda asarlar va she'rlarning yanada ta'sirchan bo'lishini, barcha so'zlarni mahorat bilan qo'llay olish mumkinligi shuningdek o'quvchilar diqqatini tortishi bilan boshqa til uslublaridan farq qiladi. Ushbu maqolada badiiy adabiyotda qo'llangan metaforalarning tahlili bilan tanishib chiqishingiz mumkin.*

Kalit so'zlar: *metafora, badiiy adabiyot, til uslublari, asarlar, she'rlar, tahlil.*

Metafora (yunoncha “metaphora” – ko‘chirish) – biror predmetning belgisini, harakatini yoki holatini boshqa narsa bilan o‘xshashlik asosida bog‘lash natijasida hosil bo‘ladigan majoziy ma’no ifodasidir. Metafora natijasida so‘z yoki iboraning ma’nosi kengayib, yangi ma’no tusini oladi. Quyida biz metaforada ma’no ko‘chish holatini ko‘rib chiqamiz:

Inson a’zolarining nomi narsalarga ko‘chish oraqali metafora hosil bo‘ladi. Masalan: *ko‘z* (odamning ko‘zi) → *buloqning ko‘zi*. **“Ko‘z”** so‘zi dastlab insonning ko‘rish a’zosi sifatida tushunilsa, u **“buloqning ko‘zi”** iborasida suv chiqadigan joyni anglatadi. Bu yerda **ko‘z** so‘zi “manba”, “boshlanish nuqtasi” ma’nosida ishlatilgan.

Inson kiyimlari qismlarining nomlari va hayvon a’zolari nomlari ham o‘xshashlik asosida boshqa narsalarga ko‘chadi va yangi ma’nolar hosil qiladi.

Inson kiyimlari qismlarining nomi narsalarga ko‘chishi: *yeng* (ko‘ylakning yengi) → *daryoning yengi*.

Qush, parranda, hayvon a’zolari nomi narsalarga ko‘chishi: *oyoq* (insonning oyoqlari) → *stolning oyoqlari*.

Undan tashqari, **harakat-holat (fe'l), belgi-xususiyat (sifat)lar** ham o'xshashlik asosida metafora orqali ma'no ko'chiradi. Masalan: *Achchiq: Achchiq qalampir* (o'z ma'nosida) → *Achchiq so'z* (metafora orqali ma'no ko'chishi);

Chiroyli: Chiroyli guldasta (o'z ma'nosida) → *Chiroyli muomala* (metafora orqali ma'no ko'chishi); *Qurimoq: Ko'l quridi* (o'z ma'nosida) → *Iz quridi* (metafora orqali ma'no ko'chishi).

Tilshunoslik va adabiyotshunoslikda metaforalar fikr ifodalashning samarali vositasi sifatida qadrlanadi. Aristotel metaforani "fikrni o'tkirlashtiruvchi vosita" deb ta'riflagan bo'lsa, I. A. Baudouin de Courtenay uni tilning asosiy semantik harakat mexanizmlaridan biri deb hisoblagan. G. Lakoff va M. Jonson esa metaforalarni nafaqat badiiy tasvir vositasi, balki inson tafakkurining asosiy mexanizmlaridan biri sifatida tushuntirgan. Ularning fikricha, "til metaforalarga asoslangan va biz dunyoni ularning yordamida anglaymiz" (Lakoff & Johnson, 1980).

Metaforalar badiiy asarlarda tasviriy ifodalilikni oshirish, hissiy ta'sirni kuchaytirish va asarning estetik qiymatini oshirish uchun muhim stilistik vosita sifatida xizmat qiladi. Quyida ayrim adabiy asarlardagi metaforalarga misollar keltiriladi:

"Shu bevafo dunyoga bir ish qilamiz, Qobilboy" (A. Qodiriy, *Mehrobdan chayon*).

Bu yerda *bevafo dunyo* atamasi hayotning o'tkinchiligi va ishonchsizligini tasvirlash uchun qo'llangan.

"Tollarning ko'm-ko'k sochpopuklari qizlarning mayda o'rilgan kokillariday selkillab tushmoqqa boshladi" (A. Cho'lpon, *Kecha va kunduz*).

Bu metafora orqali daraxtlarning yosh novdalari qizlarning o'rilgan sochlariga o'xshatilgan, bu esa tabiatning yangilanishi va go'zalligini tasvirlashga xizmat qiladi.

"Chinor" romani (A. Muxtor). Ushbu asarda *chinor* obrazi uzoq umr, barqarorlik va xalqning tarixiy xotirasini ifodalaydi. Qahramon Ochil buva chinorni "*dono suhbatdosh*" deb ataydi, bu esa chinorning insonlar uchun qadrlil va aziz ekanligini ko'rsatadi.

"Uylar to'la non, och-nahorim bolam, Ariqlar to'la suv, tashnayi zorim, bolam" (A. Qahhor, *Anor hikoyasi*). Ushbu epigraf o'tmishdagi farovonlik va hozirgi qiyinchiliklar o'rtasidagi ziddiyatni aks ettiradi.

Har bir til va madaniyat o'ziga xos metaforik tizimga ega. Masalan: Ingliz tilida keng tarqalgan metaforalardan biri: **"Time is money."** (Vaqt – bu pul.) Ushbu metafora vaqtni tejamkorlik bilan ishlatish kerakligini ta'kidlaydi.

Arab tilida *qalb* bilan bog'liq metaforalar keng tarqalgan: **"Qalbm quyosh kabi nur sochadi."**

XX asrga kelib, metaforalar nafaqat adabiy tanqid, balki lingvistika va psixologiyada ham chuqur o'rganila boshlandi. Ayniqsa, kognitiv lingvistika metaforalarni inson tafakkurining ajralmas qismi sifatida tushuntirdi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, metaforalar inson ongi dunyoni qanday tushunishini shakllantiruvchi asosiy konseptual vositalardan biridir.

Neyropsixologiya tadqiqotlari ham shuni tasdiqlaydi: metaforalar inson miyasi mavhum tushunchalarni aniq va vizual model orqali tushunishiga yordam beradi (Deignan, 2015).

Metaforalar tilning ajralmas qismi bo'lib, ular adabiy asarlar, kundalik muloqot, reklama va ilmiy tafakkurda muhim rol o'ynaydi. Ular dunyoni idrok qilishimizni shakllantiradi va inson tafakkurining chuqurligini ochib beruvchi vosita hisoblanadi. Shu sababli, metaforalarni tahlil qilish nafaqat adabiyotshunoslik, balki psixologiya, sotsiologiya va madaniyatshunoslik kabi fanlar uchun ham muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aristotel. (1983). *Poetika*. Moskva: Nauka.
2. Baudouin de Courtenay, I. A. (1895). *Izbrannye trudy po obshchemu yazykoznaniyu*. Moskva: Nauka,
3. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). *Metaphors We Live By*. University of Chicago Press.
4. Deignan, A. (2015). *Metaphor and Corpus Linguistics*. John Benjamins Publishing.
5. Abdulla Qodiriy (2022). *Mehrobdan chayon* (Toshkent). Yangi kitob nashri. 282-bet.
6. Abdulhamid Cho'lpon – Kecha va kunduz(Toshkent) (2022, 4-bet), "Yangi kitob" nashri .
7. Asqad Muxtor – Chinor (Toshkent) (2024), " Oltin qalam" nashriyoti .
8. Abdulla Qahhor – Anor hikoyasi (Toshkent)(2022,72-bet). G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
9. Soatov, I., & Temirova, M. (2024). Perceptions and challenges encountered by teachers who are currently struggling to implement English as a medium of instruction at denau institute of entrepreneurship and pedagogy. *News of the nuuz*, 1(1.4), 183-186.
10. Temirova, M. A., & Maxsumov, R. M. (2024). Linguo-cultural analysis of the texts of traditional English and Uzbek children's poems. *Current research journal of philological sciences*, 5(05), 81-85.
11. Khidirova, M. A., & Temirova, M. A. K. (2019). Translation problems of proverbs formed with professions from English into Uzbek. *Развитие и актуальные вопросы современной науки*, (6), 29-31.

O'ZBEK MAQOLLARINING ETNOLINGVISTIK TADQIQI (DEHQONCHILIK ASBOBLARI NOMLARI ASOSIDA)

Axmadjanova Muxlisa Abdumalikjon qizi
Denau Tadbirkorlik va Pedagogika Instituti talabasi
Ilmiy rahbar: Makhsumov Rustam Makhmadiyevich

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek maqollarining etnolinguvistik xususiyatlari dehqonchilik asboblari nomlari asosida o'rganiladi. Tadqiqotda maqollarda uchraydigan dehqonchilik asboblari o'ld leksik birliklarning kelib chiqishi, semantik o'zgarishlari va ularning xalq ongidagi ramziy ma'nolari tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu maqollar orqali o'zbek xalqining turmush tarzi, madaniyati va etnomadaniy dunyoqarashi aks ettirilishi ko'rsatib beriladi. Tadqiqot natijalari o'zbek xalq ijodiyoti va tilining madaniy kodlarini o'rganishda yangi yonalishlarni belgilashga yordam beradi.

Kalit so'zlar: o'zbek maqollari, etnolingvistika, dehqonchilik asboblari, xalq og'zaki ijodi, madaniy kodlar.

Maqollar xalqning ko'p asrlik hayotiy tajribasi, dunyoqarashi va madaniy qadriyatlarini o'zida aks ettiruvchi boy og'zaki ijod namunalari hisoblanadi. Ular xalq tilidagi turli tushunchalar, hodisalar va an'analarni obrazli tarzda ifodalash orqali milliy madaniyatning ajralmas qismiga aylangan. Etnolingvistika esa til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganuvchi fandır.